

O'ZBEKISTONDA AJRIMLARING KO'PAYISHI VA UNING SABABLARI

Mirzaqulova Gulhayo Chinolat qizi

Nizomiy nomidagi TDPUnTarix fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonda ajrimlarning soni oiladagi ajrimlarning sabablari, oqibatlari, oiladagi bolalarning ruhiyati va tarbiyasiga ta'siri, ajralishlarni oldini olish choratadbirlari bo'yicha fikr va mulohazalar keltiriladi.

Kalit so'zlar- Oila, ajrim, ajralish, er-xotin, viloyat, ota-ona, turmush.

Ajralish muammosi hozirgi kunda jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Oilaviy ajralishlarning mavjudligi ham respublikamizda keng jamoatchilik e'tiborini o'ziga jalb etib, bu muammoning yechimini topish uchun zarur chora-tadbirlarni ko'rishga undaydi. Chunki, yuqorida aytib o'tilganidek, ajralish natijasida millionlab odamlar-birinchi navbatda bolalar, ayollar, erkaklar va hatto ajralishlarning yaqinlari ham "ma'naviy farovonlik"oladilar.¹

O'zbekistonda 1 yanvardan 1 iyungacha 20 798 ta oila rasman ajrashdi. Bu – o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4700 taga ko'p. 2022 yilning 1 iyun holatiga FHDY organlari tomonidan respublika bo'yicha 20 798 ta ajrim qayd etilgan. Adliya vazirligi xabariga ko'ra, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 4 700 taga ko'paygan. Xususan, sudlarning tegishli qarorlariga asosan – 14 986 ta, o'zaro rozilik asosida – 5 812 ta ajrim holati qayd etildi. Hududlar kesimida ajrimlar bo'yicha Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlari va Toshkent shaharda eng yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi.

Bunda: Samarqand viloyati – 368 ta; Farg'ona viloyati – 793 ta; Qashqadaryo viloyati – 368 ta; Andijon viloyati – 800 ta; Surxondaryo viloyati – 353 ta; Namangan viloyati – 706 ta; Toshkent viloyati – 693 ta; Toshkent shahri – 732 ta; Buxoro viloyati – 184 ta; Jizzax viloyati – 248 ta; Qoraqalpog'iston R. – 76 ta; Xorazm viloyati – 176 ta; Navoiy viloyati – 109 ta; Sirdaryo viloyati – 206 ta ajrim kuzatildi.²

¹ Azamova Kumush, Abduxalilov Abdulla "Oilalarda ajralish va uning oqibatlari", kun.uz, Shuhrat Ermatov "oila va xotin-qizlar"(14.02.2024).

² <https://kun.uz/uz/news/2022/06/13/1-iyun-holatiga-qayd-etilgan-ajrimlar-soni-20-mingdan-oshdi>(14.02.2024)



Oila deganimizda ko‘z oldimizga ota-ona, farzandlar, bobo-buvilar, ya‘ni bir xonadonda istiqomat qiluvchi shaxslar keladi. Xalqimizda oilaga muqaddas dargoh, nikohga esa buzilmas rishta sifatida qaraladi.

Oila jamiyat ustuni deyishadi. Shuning uchun yangi oila barpo bo‘lar ekan, uni ikki yoshga, ya‘ni yangi er-xotinlarga tashlab qo‘yishmaydi. Yangi oilaga ota-onalar, qarindoshlar, mahalla, joylardagi xotin-qizlar qo‘mitalari, “Oila” ilmiy-amaliy markazi, shuningdek, mutasaddi tashkilotlar ham e‘tibor qaratadi. Ya‘ni bugungi kunda bizning davlatimizda oila masalasiga davlat siyosati darajasida qaralib kelinmoqda.³

Oila – jamiyatning asosiy bo‘g‘ini, muqaddas maskan. Insoniyatning eng sof, pokiza tuyg‘ulari, kamolotga yetish bosqichi oila bag‘rida shakllanadi. Oilada ma‘naviy muhit sog‘lom bo‘lsa, oila mustahkam bo‘ladi. Biroq bugungi kunda jamiyatimizda ko‘plab oilalarning ajralish holatlariga guvoh bo‘lyapmiz.⁴

Ajralish – bu eng kuchli hissiy va ruhiy zarba bo‘lib, u turmush o‘rtoqlar uchun izsiz bo‘lmaydi. Ayol ko‘pincha ajrashgandan keyin yolg‘iz qoladi. Kimnidir omadi chopmaydi va boshqa turmush qurmaydi, kimdir munosabatlar takrorlanishidan qo‘rqadi va kimdir, ayniqsa, 40 yoshdan oshgan ayollar, o‘z eriga taqdirini topshirib, itoat qilib yashashdan ko‘ra yolg‘iz yashashni afzal ko‘radi. Ularning allaqachon katta yoshli bolalari bor va ular o‘z hayotlarini faqat o‘zlariga, o‘z manfaatlariga bag‘ishlashlari mumkin. Ko‘plab juftliklar nikohlari buzilganidan afsuslanishadi, ular ajrimdan keyin sobiq turmush o‘rtog‘iga hissiy jihatdan bog‘lanib qoladilar. Ajralishlar sonining ko‘payishi, odatda, ko‘plab er-xotin uchun ham, ularning farzandlari uchun ham ajralish bilan birga keladigan muammolarni boshdan kechirishlariga olib keladi. Ajralish bolalarning ruhiyatiga jiddiy ta‘sir qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar, odatda, ota-onasining ajrashishida o‘zlarini aybdor deb his qilishadi. Kattaroq bolalar o‘zlarining g‘azabini to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalaydi. Aksariyat bolalar ajrimdan keyin bir yoki ikki yil ichida tinchlanadi, garchi ularning ba‘zilari, hatto, ota-onasi boshqa turmush qursa ham, ular ajrashgandan keyin 5 yil yoki undan ham ko‘proq vaqt davomida o‘zlarini baxtsiz va yolg‘iz his qiladilar. Er yoki xotin birinchi jiddiy nizodayoq ajralish huquqidan foydalanishdan qo‘rqadi. Bu har bir er-xotinning xulq-atvorida va ularning oilaviy rollariga bo‘lgan munosabatida, o‘zaro bir-birlarini hamda o‘z-o‘zini baholashda, rejalashtirishda namoyon bo‘ladi.

³ [https://ijtimoiy.uz/2347/#\(14.02.2024\)](https://ijtimoiy.uz/2347/#(14.02.2024)).

⁴ Shayx Yusuf Xattor Muhammad “Oila saodat maskani”, Kun.uz, Shuhrat Ermatov “oila va xotin-qizlar”(14.02.2024)



XULOSA

Kelinlarga jamiyatda eng past nazar bilan qaraydigan feodallar ham bor. Kelinlar qaysidir oilaga borib biron muammolarga duch kelsa demak ayb faqat o'zida degan gaplarni eshidim va bunga men e'tiroz bildirmoqchiman bizning mentalitetimizdan kelib chiqqan xolda. Tasavvur qiling o'sha begona oilada er, qaynona, qaynota. Qayni opa, qayni ukalarni hisobga olmay turamiz. Biz muhim xotin degan topilaveradi shiori ostida tuzilgan bu jamoaga qarshi tajribasiz yoshgina qiz kelib, ularga yoqishga harakat qilishu kerak, bular esavyoqishga harakat qilmaydi, tepadan turib u qizni kuzatadi u ham yetmaganday u qiz begona oilaga keldi ota-onasini bag'ridan qanchalik unga og'ir. Aksincha bu insonlar yetuk tajribaga ega uning holatini tushunib turib birga harakat qilishsa, qanaqa mustahkam oila bo'lgan bo'lar edi. Begona joyga borib turib, bir necha kishiga yoqishga harakat qilish oson ish emas, siz bu narsani qilib ko'ring, men ko'rmadim er, qaynona yoki qayniota kelib turib, iltimos oilam buzulib ketyabti, menga yordam bering deganini, yoki oilaviy munosabatda ular murojat qilganini, faqat ayollar, kelinlar keladi, oilamni saqlab qoling deb, go'yoki oila faqat kelinlarga, ayollarga kerak vaholangki muammo qisman ha ayolda lekin aksariyat muammo o'sha oilaning boshqa oila a'zolarida ham.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azamova Kumush, Abduhalilov Abdulla "Oilalarda ajralish va uning oqibatlarini"
2. Shayx Yusuf Xattor Muhammad "Oila saodat maskani"
3. [https://ijtimoiy.uz/2347/#\(14.02.2024\)](https://ijtimoiy.uz/2347/#(14.02.2024)).
4. [https://kun.uz/uz/news/2022/06/13/1-iyun-holatiga-qayd-etilgan-ajrimlar-soni-20-mingdan-oshdi\(14.02.2024\)](https://kun.uz/uz/news/2022/06/13/1-iyun-holatiga-qayd-etilgan-ajrimlar-soni-20-mingdan-oshdi(14.02.2024))

